Osiyo Fan Akademiyalari forumi tafsilotlari

Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sirojiddin Mirzayev 22-24-noyabr kunlari Koreya Respublikasi Fan va Texnologiyalar Akademiyasi (KAST) taklifiga binoan, Janubiy Koreyada o‘tgan «Osiyo Fan Akademiyalari Forumi 2024» da o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

Osiyo mamlakatlari iqtisodiyot, madaniyat va fan kabi sohalarda tobora globallashayotgan dunyo maydonida yanada ta'sirli bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, fan va texnologiyalar milliy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. KAST o‘zining 30 yillik yubileyini nishonlash doirasida Osiyo mamlakatlari akademiyalarining rahbarlarini «Osiyoda fan va texnologiyalarni rivojlantirish» mavzusida fikr va tajriba almashish maqsadida jamladi. Tadbir dasturi doirasida uchta sessiya bo‘lib o‘tdi.

Forum davomida Sirojiddin Zayniyevich KAST prezidenti professor Uk Jun Yu, Yaponiya Fan Kengashi (SCJ) prezidenti professor Mutsuisi Mamoru va Osiyo Fan Akademiyalari va Jamiyatlari Assotsiatsiyasi (AASSA) prezidenti Axmet Nur Yurdusov bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazdi. Kelgusidagi hamkorlik rejalari tuzildi.



